



BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYASINING AHAMIYATI

Nurmurodova Ra'no Saydullayevna
Xatirchi tumani 20-IDUMning
oliy toifali biologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiya fanini o'qitishda fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish yo'llari va ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, o'qitish jarayonida muayyan usullardan foydalanish bo'yicha takliflar berilgan.

Tayanch so'z va tushunchalar: biologik tushuncha, hujayra, irsiyat, o'zgaruvchanlik, genetik simvol, evolyusion rivojlanish, odam genetikasi, bog'liqlik.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari biologiya fani o'qituvchilarining zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishi, biologiya fanini o'qitish shakllarini zamonaviy yondashuv asosida tashkil etishi hamda ko'nikmalarini rivojlantirishi uchun ta'lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, ta'limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat ta'lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o'quv metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish hamda pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish taqozo etiladi. Mamlakatimizda zamonaviy yondashuvga asoslangan yangi davlat ta'lim standartlarining joriy etilishi o'rta maktab o'qituvchilari zimmasiga qator dolzarb vazifalarni qo'yimoqda.

Ayni paytda vujudga kelgan shart-sharoitlar va o'qituvchilarning yuqoridagi keltirilgan ehtiyojlari malaka oshirishning shakli, mazmuni va uni amalga oshirish mexanizmlarini qayta ko'rib chiqishni va bu jarayonga tegishli o'zgartirishlarni kiritishni taqozo etmoqda.

Xususan, shu kunlarda yuqoridagi ehtiyojlardan va ular oldida ko'ndalang turgan muammolardan kelib chiqqan holda, biologiya fani o'qituvchilarining malakasini oshirish mazmuni va shakllarini takomillashtirish zarurati paydo bo'ldi. "Biologiya fanini o'qitish metodikasi" modulining ishchi o'quv dasturi biologiya fani o'qituvchilari malakasini oshirish kursining o'quv dasturi asosida tuzilgan bo'lib, u biologiya fani o'qituvchilariga o'qitishning zamonaviy metodlari mazmuni va mohiyatini ochib beradi.

Modulning maqsadi: umumiy o'rta ta'lim maktablari biologiya fani o'qituvchilarining zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, biologiya fanini o'qitish shakllarini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat.



Modulning vazifalari: o'qituvchilarning biologiya fanini o'qitishda o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar, faol va interfaol metodlar, ularni qo'llash haqidagi bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish; biologiya darslarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish ko'nikmalarini rivojlantirish. Modul bo'yicha tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar biologiya fanini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari va o'qitishning faol, interfaol metodlarini;

biologiya fanini o'qitish shakllari (dars, darsdan tashqari ishlar, sinfdan tashqari mashg'ulotlar, ekskursiyalar)ni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish; dars ishlanmalarini ishlab chiqishga qo'yilgan zamonaviy talablarni bilishi;

- biologiya fanini o'qitishda faol, interfaol metodlarini qo'llay olish;
- biologiya fanining mazmuni, vositalari, metodlari va shakllarining uzviyligi va izchilligini ta'minlash;

- zamonaviy talablar asosida dars ishlanmasini ishlab chiqish;

- biologiyadan o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini baholash uchun o'quv topshiriqlarini tuzish;

- laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish;

- biologiyadan masalalar yechish;

- darslarni kuzatish, tahlil qilish va baholash ko'nikmalariga;

- biologiya fanini o'qitishda darsdan tashqari ishlar va sinfdan tashqari mashg'ulotlar, ekskursiyalarni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil qilish;

- laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish; biologiyadan masalalar yechish malakalariga;

- zamonaviy pedagogik texnologiyalardan kasbiy faoliyatda foydalanish;

zamonaviy talablar darajasida darslarni tashkil qilish va o'tkazish kompetensiyalariga ega bo'lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar "Biologiya fanini o'qitish metodikasi" modulidan mashg'ulotlar nazariy va amaliy shaklda olib boriladi. Nazariy mashg'ulotlarda biologiya fanidan yaratilgan o'quv -uslubiy majmualar mazmuni, dars ishlanmalariga qo'yilgan talablar, biologiyaning o'ziga xos xususiyatlari va fanni o'qitish metodikasi haqida ma'lumotlar beriladi. Amaliy mashg'ulotlarda dars ishlanmalarini zamonaviy talablar asosida yaratish, o'quvchilar bilimini baholash, darsdan tashqari ishlar va sinfdan tashqari mashg'ulotlar, ekskursiyalarni o'tkazish, darslarni kuzatish va tahlil qilish o'rgatiladi. Mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress -so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum,



guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash va boshqa interfaol ta'lim usullaridan foydalanish nazarda tutiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi mazkur modul mazmuni o'quv rejadagi "Ta'lim -tarbiya texnologiyalari va pedagogik mahorat", "Ta'lim jarayonida axborotkommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash", bloklari, "Biologiya fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar" moduli bilan uzviy bog'langan holda pedagoglarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi Modulning uslubiy jihatdan uzviy ketma –ketli gi mazkur modul "O'zbekistonda ta'lim -tarbiya jarayonlarining huquqiy meyoriy asoslari", "Ta'lim - tarbiya texnologiyalari va pedagogik mahorat" va "Ta'lim jarayonida axborot -kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash" bloklaridan keyin o'rganiladi. Unda yuqoridagi bloklarda o'rganilgan mazmun yo'nalishlari va uslubiy jihatlarini biologiya faniga tatbiq etish imkoniyatlari ochib beriladi. Modulning ta'limdagi o'rni Tinglovchilarni biologiya fanini o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari va metodlari bilan tanishtirish hamda amalda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish orqali ta'lim samaradorligini ta'minlashdan iborat.

Хулоса ва тавсиялар. Барча фанларнинг интегратив боғлиқлигини ҳамма даврларда таъминланган ҳолда фанлар тараққиёти юксак даражада бўлган. Фанларнинг бир-бири билан ҳамкорликда ривожланиши эса ўқувчи-ёшлар интеллектуал салоҳиятининг янада ривожланишига хизмат қилади. Мавзунинг мазмунига қараб кимё, экология, физика, география, математика ҳамда қишлоқ хўжалигининг барча соҳалари мисолида дарсларни ташкил этиш мумкин. Шунда ўқувчиларга мавзунинг тўлақонли мазмуни очиб берилди.

Адабиётлар рўйхати:

1. Толипова Ж.О., Ғофуров А. Биология ўқитиш методикаси. - Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2012.
2. Ikromjonovna, J. S. (2024, March). Methods of Teaching Mathematics in Primary Classes. In International Global Conference (Vol. 1, No. 4, pp. 19-25).
3. Толипова Ж.О. Биологияни ўқитишда инновацион технологиялар. - Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2014.
4. Nurillaev, R. Y. (2024). Ensuring food safety in a changing world: challenges and solutions.
5. Толипова Ж.О. Биология таълими технологиялари. – Т.: «Ўқитувчи», 2002.
6. Нуриллаев, Ж. Я. (1999). Оценка метафилактических мероприятий по отдаленным результатам хирургического лечения мочекаменной болезни у детей.



7. Саидахмедова Н.С. Янги педагогик технологиялар. - Т.: «Молия», 2003. Иноятов У.И., Муслимов Н.А. ва бошқалар. Педагогика. – Т.: «Илм зиё», 2012.
8. Ikromjonovna, J. S., & Husanovna, Y. L. S. (2023). Maktabgacha Ta'lim Tashkilotlarida Sog 'Lom Ovqatlanishni Tashkil Etish. Образование Наука И Инновационные Идеи В Мире, 34(6), 85-90.

